

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SANAKULOV ULUGBEK KUCHKAROVICH**

**ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA LAYLI VA MAJNUN  
TIMSOLLARI TALQINI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological  
Sciences**

**Sanakulov Ulugbek Kuchkarovich**

Alisher Navoiy she‘riyatida Layli va Majnun timsollari talqini ..... 3

**Санакулов Улугбек Кучкарович**

Интерпретации образов Лейли и Меджнуна в поэзии Алишера Навои ..... 25

**Sanakulov Ulugbek Kuchkarovich**

Interpretation of symbols Layli and Majnun in the lyrics of Alisher Navai ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SANAKULOV ULUGBEK KUCHKAROVICH**

**ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA LAYLI VA MAJNUN  
TIMSOLLARI TALQINI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/ Fil1958 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qobilov Usmon Uralovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Eshonqulov Husniddin Primovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Tohirov Sobirjon Qobilovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 26-iyun soat 10. 00 da majlislar zalida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail:rector@samdu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239--18-92; faks: (8366) 239-11-40

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2024-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_reestr raqamli bayonnomasi)

**M.Q.Muhiddinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**D.B.Xursanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, filologiya  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sh.A.Hasanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi dunyo miqyosida e’tirof etilgan buyuk ijodkorlar asarlari poetikasini globallashtirgan tafakkur sathi mezonlariga olib chiqmoqda. Ayniqsa, ko‘lam jihatidan badiiy ijodning asosini tashkil etadigan Sharq mumtoz she’riyatida janrlar rang-barangligi, tasavvufiy mohiyatning obrazlarga singdirilishi, ularning shakllanish tarixini asoslash, inson ruhiy kamolotining yuqori darajaga ko‘tarilishi, makon va vaqtda lirik qahramon ruhiy holatini bosqichma-bosqich o‘tib borishi, epik va lirik tur xususiyatlarining o‘zaro sintezi hamda oshiqlik maqomi badiiy tasviriy vositalarda ifoda etilishi, ularning poetik shakllanish davri va tadrijiy takomilini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida Sharq adabiyoti tarixi va ilmiy-nazariy qarashlari, mumtoz asarlarning dunyo adabiyotida tutgan mavqeyi, Alisher Navoiy ijodi va jahon adabiy an‘analariga ta’siri kabi masalalar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida jahon adabiyotshunosligida ulug‘ ijodkor she’riyati janrlari, mavzulari, obrazlar tizimi va umuman poetik olami, ularning adabiy-estetik hamda tipologik xususiyatlarini islomiy-tasavvufiy qarashlarda aks etishi, sharqona badiiyat mezonlari, uslub manerasi, badiiy detallarni qo‘llash orqali lirik qahramon ruhiy olamini ochish, ramziy vositalarda oshiq, ma’shuqa, raqib uchligini yoritilishi, an’anaviy motivlardan foydalanish mahoratini aniqlash bugungi adabiyotshunoslik oldidagi vazifalardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda meros bo‘lib kelayotgan mumtoz asarlarning adabiyot tarixi, folklorshunoslik, tilshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik, mumtoz poetika masalalariga e’tibor qaratilmoqda. “Vatanimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo‘yib, yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”<sup>1</sup>. Natijada shoir asarlari, xususan, she’riyati, obraz-timsollar olami va ularning ifoda tarzi, tasvir ko‘lami, poetik dunyosiga singib ketgan bashariy, ma’rifiy, tasavvufiy mazmun tadqiqi bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 19 октябрдаги “Буюк шoir ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги ПҚ-4865-сон Қарори.

targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida" qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodi, xususan, lirik merosini tadqiq etish shoir yashagan davrdan boshlanadi. Shu bilan navoiyshunoslik dunyo adabiyot ilmining doimiy obyektiga aylanadi. Jahonning Amerika, Italiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Misr, Ozarbayjon, Turkiya, Tojikiston, Rossiya<sup>2</sup> va boshqa mamlakatlari olimlari tomonidan Alisher Navoiy she'riyati tadqiqiga bag'ishlangan salmoqli ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu ishlarda shoir lirik merosi jahon adabiyoti taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida tadqiq etiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy she'riyati tadqiqi har doim muhim masalalardan bo'lib keladi. Jumladan, "Layli va Majnun" mavzusi ham ko'p yillardan buyon tadqiqotchilar diqqat nazarida bo'lib turibdi. Navoiyshunoslikda ushbu masala alohida tadqiqot doirasini tashkil etgan holda bu borada qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni Oybek, Maqsud Shayxzoda, Sadriddin Ayniy, Olim Sharafiddinov, N.Mallayev, T.Ahmedov, A.Qayumov, S.Narzullayeva va boshqalar tomonidan o'rganilgan<sup>3</sup>. Keyingi yillarda N.Komilov, I.Haqqulov, E.Ochilov, U.Jo'raqulov, A.Erkinov, S.Tohirov kabi olimlar dostonning g'oyaviy mazmuni, obrazlari va umuman

---

<sup>2</sup> Walmsley Nicholas Gerard. O Navā`ī: imitation, innovation, and the invention of a Central asian literary icon, 1500–1900. Ph.D. dissertation. – Indiana: 2016. – 342 p.; Fearey Margaret Sharon. Nāvā'i's turkic and persian quatrains: discourse typology and the bilingual poet. Ph.D. dissertation. – Michigan: 1977. – 188 p.; R. Zipoli. The Techniques of Gawab replies by Nāvā'i to Hafiz and Gami. – Venezia: Libreria Editrice Cafoscarina, 1993. – P. 83; Köprülü F. Alı Şır Nevai. – Istanbul, 1941; Levend A.S. Alı Şır Nevai: hayati, sanati va şahsiyeti. – Ankara, 1965; Çetidağ Y. Alı Şır Nevai: hayati, sanati va eserlari; Fatih Üniversitesi. – Istanbul, 2005; Нагиева Дж. Алишер Навоий и Азербайджанская литература (XV-XIX вв.). – М., 1986; Arasli N. Nāvai va Azərbaycan ədəbiyyati // Əlishir Nāvai Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında. – Bakı: Qartal, 2009; Əlişir Nāvai və Azərbaycan ədəbiyyati. Beynəlxalq elmi konfransın materiallari. – Bakı: 2017. – B. 46-58; Айний, Садриддин. Алишер Навоий / Садриддин Айний // Шарқи Сурх, 1941. №1, 2, 3, 4-5; Айний. Алишер Навоий. – Душанбе: Нашриёти Давлати Тоҷикистон, 1948. – С.181-182; С.Шугуфта. Шарҳи аҳвол ва осори форсийи Амир Алишер Навоий. – Исломобод-Покистон, 2005. –С.413.; Бертельс Е.Э.Избранные труды. Том 4. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – 498 с

<sup>3</sup> Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. Ўн учинчи том. – Т.: Фан, 1979. – 512 б.; Шайхзода М. Асарлар. Тўртинчи том. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – 372 б.; Шарафиддинов О. Алишер Навоий. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1971. – 192 б.; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Ўқитувчи нашриёти, 1965; Шу муаллиф. Алишер Навоий ва халқ оғзаки ижодиёти. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 384 б.; Сўз санъатининг гултожи. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 152 б.; Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг Лайли ва Мажнун дostonи.- Т.: Фан, 1970.– 140 б.; Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 256 б.; Нарзуллаева С. Тема «Лейли и Меджнун» в истории литератур народов Советского Востока. – Т.: 1983.

poetikasiga doir yangicha qarashlarni ilgari surganlar<sup>4</sup>. X.Mamatqulova, Y.Abdulhakimovalar Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini qiyosiy aspektda o‘rgandilar<sup>5</sup>. Bu tadqiqot hamda izlanishlarning aksariyati tugal voqelikni ifodalagan “Layli va Majnun” dostoni ustida olib borilgani bilan izohlanadi. Biroq Alisher Navoiy lirik merosida Layli va Majnun obraz-timsollarining badiiy talqini masalasi maxsus monografik planda o‘rganilmadi. Layli va Majnun Navoiy she‘riyatining eng faol timsollardan ekanligi bois shoir ijodiga daxldor ilmiy-nazariy qarashlar qanday masalalar yechimiga bag‘ishlanmasin, ularda tadqiqotchilar e‘tibori ma‘lum nuqtalarda mazkur obrazlarga qaratiladi. Alisher Navoiy she‘riyatida Layli va Majnun obrazlari talqini to‘g‘risida Oybek, M.Shayxzoda, N.Mallayev, A.Hayitmetov kuzatishlarida ayrim fikr-qarashlarni uchratamiz<sup>6</sup>. Taniqli olim N.Mallayev Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonini maxsus o‘rganish asnosida<sup>7</sup> shoirning boshqa asarlarida ham Layli va Majnun afsonasidan foydalanilganligiga e‘tibor qaratadi, Alisher Navoiyning lirikada Layli va Majnun afsonasiga (timsollariga) tez-tez murojaat etib turganligini qayd etarkan, bu timsollar ifodalangan baytlardan namunalar keltiradi. Shu kabi A.Hayitmetov ham “Navoiy lirikasi” kitobidagi “Navoiy she‘riyatida g‘azalning o‘rni”, “Navoiy g‘azallarining mavzu xususiyatlari”, “Navoiy lirikasidagi asosiy obrazlar”, “Navoiy lirikasining ijodiy metod xususiyatlari” kabi qismlarida Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Vomiq, Uzro kabi poetik obrazlarning shoir lirikasida tutgan o‘rni va vazifasini ma‘lum o‘rinlarda bir qator g‘azallar misolida tahlil qiladi, A.Rustamov “Navoiyning badiiy mahorati”<sup>8</sup> kitobida Layli va Majnun obrazlari talmih o‘rnida qo‘llanilishiga e‘tibor qaratadi.

Alisher Navoiy she‘riyati borasida keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda esa Layli va Majnun obrazlarining poetik manzaralar yaratishdagi vazifasi, irfoniy mohiyati xususida muayyan fikrlar adabiyotshunoslar U.Qobilov, H.Eshonqulov, N.Bekova, A.Razzoqov, K.Mullaxo‘jayeva, X.Xolmurodov<sup>9</sup> va boshqalar

---

<sup>4</sup> Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мавороуннахр -Ўзбекистон. 2009. – 445 б.; Шу муаллиф. Хизр чашмаси. –Т.: Маънавият. 2005. – 320 б.; Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 184 б. Шу муаллиф. Камол эт касбким... – Т.: Чўлпон. 1991. – 240 б.; Навоийга армуғон. Тўртинчи китоб. – Т.: Фан, 2004. – 161 б.; Жўрақулов У.Ҳ. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Филол. фан. докт. дисс.автореф. – Тошкент, 2017. – 73 б.; Эркинов А. Навоийни англаш сари. – Анқара, 2021.466 б.; Тоҳиров С.Қ.Темурийлар даврида хамсанавислик. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2020. – 172 б.

<sup>5</sup> Маматқулова Х. А. Навоийнинг “Лайли ва Мажнун”, Шекспирнинг “Ромео ва Жульетта” асарларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фанлари номз. дисс. – Самарқанд, 2009. – 140 б.; Абдулҳакимова Ю. Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий Лайли ва Мажнун дostonларининг қиёсий таҳлили. Фил. фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 156 б.

<sup>6</sup> Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. (Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр) – Т.: O‘zbekiston, 2015. - 328 б.

<sup>7</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Ўқитувчи нашриёти, 1965; Шу муаллиф. Алишер Навоий ва халқ оғзаки ижодиёти. – Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 384 б.; Сўз санъатининг гултожи. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 152 б.

<sup>8</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати.– Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.

<sup>9</sup> Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV-XV асрлар). Фил.фан. док. дисс (DSc). – Самарқанд, 2019. – 283 б.; Эшонқулов Х. Алишер Навоий ғазалиётида ишқ поэтикасининг қиёсий-типология таҳлили. Филол. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 76 б.; Раззоқов А.. Алишер Навоий шеърятини илм ва маърифат талқини. Фил. фан.буйича фал. док.(PhD)дисс. – Қарши, 2019. –174 б.; Бекова Н. Алишер Навоий форсий меросининг жанрий хусусиятлари ва бадийати: Филол. фан. док (DSc) дисс. – Бухоро, 2021. – 277 б.; Муллаҳўжаева К.Т. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги (“Бадоеъ ул-бидоя” девони асосида): Филол. фанлари номз. дисс. автореферати. –

kuzatishlarida ham ma'lum darajada ko'zga tashlanadi. Biroq "Layli va Majnun" mavzusining nihoyatda keng qamrovli hodisa ekanligi, bunda lirik talqin ham epik tasvirlardan kam bo'lmagan o'rin tutishi masalasida bunday fikr bildirib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan o'zbek va umuman mumtoz she'riyatda Layli va Majnun timsollarining ifoda etilishida salmoqdor bo'lgan Alisher Navoiy lirikasi misolida muammoni tadqiq etishga harakat qildik. Bu esa Layli va Majnun obrazlarining Alisher Navoiy she'riyatida talqin etilishi, ular bajargan poetik funksiyalarga oydinlik kiritish, bu syujet va timsollar ifoda an'alarining o'ziga xosligini ochib berish, shoir she'riyatida tutgan o'rnini baholash hamda Layli va Majnun timsollari talqini manzaralarini yuzaga chiqaradigan voqeilik va detallarni ochib berish alohida ilmiy tadqiqot olib borish zarurligini isbotlaydi. Binobarin, Alisher Navoiy she'riyatida Layli va Majnun obraz-timsollari talqini muammosi bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifasi sifatida namoyon bo'ladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq Til nazariyasi va adabiyotshunoslik kafedrasining "Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari" yo'nalishida olib borilayotgan fundamental tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** "Layli va Majnun" syujeti genezisi, obrazlar talqinidagi tadrijiylik, an'anaviylik va ijodiy izdoshlik, Alisher Navoiy she'riyatida timsollar badiiyatini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

Layli va Majnun obrazlarining Alisher Navoiygacha bo'lgan forsiy va turkiy adabiyotdagi lirik-epik talqinlari jarayonini aniqlash;

Layli va Majnun timsollarining Alisher Navoiy she'riyatidagi o'ziga xos talqinlari, poetik vazifalari, shoir ijodiy konsepsiyasi asosida davom etganligini ochib berish;

Layli va Majnun obraz-timsollarining Alisher Navoiy ijodida hamda lirik merosida tutgan o'rnini ochib berish;

Layli va Majnun timsollarining lirik janrlardagi ifoda ko'lami, lirik asarlarning g'oyasi va mazmuniga, badiiy xususiyatlari mukammalligini ta'minlashda shu tipdagi timsollar bilan muvoziy ifodalanish masalalarini dalillash;

Alisher Navoiy she'riyatida Layli va Majnun timsollarining poetik detallar bilan talqin etilish manzaralari, detallarda majoziylik vazifalarini ochib berish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Alisher Navoiyning "Badoyi' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" devonlari, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti, "Layli va Majnun" dostonlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Alisher Navoiy she'riyatida faol qo'llanilgan Layli va Majnun obraz-timsollari ifodalagan lirik talqinlar poetikasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, tavsiflash, tasniflash, statistik, nazariy va ilmiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

---

Тошкент, 2005. – 26 б.; Холмуродов Х. Алишер Навоий шеъриятида образ-тисмоллар трансформацияси (Фарҳод ва Ширин мисолида). Фил.фан.бўйича фал. док (PhD)дисс. – Жиззах, 2022. - 141 б.

Alisher Navoiy gʻazaliyotida Majnun timsolining lirik qahramonning oshiqlik maqomini belgilovchi (havasmand, ergashuvchi, shogird, pir), Layli timsolining maʼshuqaning bashariy va ilohiy (husn, noz-karashma, latofat, tajalliy, mahzar) sifatlarini namoyon etuvchi muhim poetik vazifasi ochib berilgan;

Alisher Navoiyning gʻazal, mustazod, muxammas, musaddas, tarjiʼband, ruboiy, lugʻz, fard kabi janrlardagi sheʼrlarida Layli va Majnun timsollarining shoir poetik tafakkurini ochishdagi badiiy-estetik vazifasi ochib berilgan;

hamd va oshiqona mavzudagi gʻazallarda Layli va Majnun timsollarining Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro kabi timsollar bilan muvoziy qoʻllanish imkoniyati, ohu, qyun, kiyik, shamol kabi detallar vositasida shoir poetik uslubining oʻziga xos qirralari ilmiy jihatdan dalillangan;

lirik qahramon ruhiy olamini yoritishda ishq va oshiqning maskani sanalgan dasht, togʻ, sahro, vuhush kabi detallarning kompozitsion, uslubiy, obrazlilik, hissiylik kabi poetik xususiyatlari qiyosiy-tarixiy usulda yoritilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Layli va Majnun obraz-timsollarining Sharq mumtoz adabiyotida shakllanishi, xususan, Alisher Navoiy sheʼriyatda anʼanaviy rivoji va oʻziga xos lirik talqinlarini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar navoiyshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy maʼlumotlar berishi, “Oʻzbek adabiyoti tarixi”, “Navoiyshunoslik”, “Adabiyot nazariyasi” kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qoʻllanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Alisher Navoiy sheʼriyatida Layli va Majnun obraz-timsollari talqini haqida ilmiy qarashlar shakllantirilgan boʻlib, buning natijasida mumtoz sheʼriyat obrazlari qatlamlari ochib berilgan;

Layli va Majnun obraz-timsollarining sheʼriy asarlarda ifodalangan gʻoyalari bugungi kun oʻquvchisining dunyoqarashi, badiiy tafakkurini boyitishda hamda jamiyat axloqiy-estetik, maʼnaviy-maʼrifiy qiyofasini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qoʻllanilgan yondashuv usullari va nazariy maʼlumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan manbalarning ilmiy metodlar vositasida tekshirilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida oʻrganilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyadan chiqarilgan nazariy xulosalar oʻzbek adabiyotshunosligida obraz va timsollar transformatsiyasi, shuningdek, ramziy-majoziy timsollar olami toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni boyitadi, oʻzbek mumtoz sheʼriyati, xususan, Alisher Navoiy lirikasining poetik timsollar olami, ularning gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari haqidagi qarashlarni toʻldiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishning materiali va umumlashma xulosalaridan oʻzbek mumtoz sheʼriyatini oʻrganishda oliy oʻquv yurtlari, akademik litseylar hamda umumtaʼlim maktablari uchun “Oʻzbek adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Oʻzbek adabiy tanqidi tarixi”, “Badiiy tahlil asoslari”, “Navoiyshunoslik” fanlari boʻyicha darslik va qoʻllanmalarni toʻldirishda,

oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlarida maxsus kurslardan seminarlar tashkil etishda, ma’ruzalar o‘qishda manba sifatida foydalanishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Alisher Navoiy she’riyatida Layli va Majnun timsollari talqini” mavzusidagi tadqiqotda erishilgan ilmiy natijalardan:

Alisher Navoiy g‘azaliyotida Majnun timsolining lirik qahramonning oshiqlik maqomini belgilovchi - havasmand, ergashuvchi, shogird, pir; Layli timsolining ma’shuqaning bashariy va ilohiy (husn, noz-karashma, latofat, tajalliy, mahzar) sifatlarini namoyon etuvchi masalalarga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2014-2016-yillarga mo‘ljallangan Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 3-apreldagi 867/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada institut talabalarining jahon va o‘zbek she’riyatida obraz-timsollar olamini o‘rganishda, xususan, Layli va Majnun timsollari misolida chuqurroq anglab olishlariga ko‘maklashilgan.

hamd va oshiqona mavzudagi g‘azallarda shoirning Layli va Majnun timsollarini boshqa shu tipdagi Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro kabi obrazlar bilan muvoziy-parallel ifodalash imkoniyati, aruzning hazaj, ramal kabi sodda vaznlarida qo‘llashi; shoir lirikasida ishq va oshiqning maskani sanalgan dasht, tog‘, sahro, vuhush kabi detallarning lirik qahramon ruhiy-ma’naviy olamini yoritishdagi kompozitsion, uslubiy, obrazlilik, hissiylik kabi poetik xususiyatlari borasida chiqarilgan xulosalardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo‘ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: O‘zbekistonda Oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 3-apreldagi 868/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada poetik obrazlar tizimi uyg‘unligiga doir kuzatishlar adabiyotshunoslikda mavjud nazariy fikrlarning boyishiga asos bo‘lgan, lirik qahramon ichki kechinmalari, ruhiyat olami talqinida adabiy obraz-timsollarning bajargan vazifasi nazariy jihatdan rivojlantirilgan.

Sharq mumtoz adabiyotida davrlar mobaynida takomillashib borgan “Layli va Majnun” dostonlarining g‘oyaviy-badiiy asoslari va uning Alisher Navoiy ijodiga sintezi, shoirning g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarji‘band, ruboiy, lug‘z, fard kabi janrlardagi she’rlarida Layli va Majnun timsollarining shoir poetik tafakkurini ochishdagi badiiy-estetik vazifasi doir nazariy xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi dasturlaridan joy olgan “Assalom, Samarqand!” dasturining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 27-mart № 01-07/93 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning “Layli va Majnun” dostonlari, Alisher Navoiy she’riyati to‘g‘risidagi tasavvurlarining kengayishiga, timsollarning ijtimoiy hayotga daxldor etgan insoniy-ma’naviy fazilatlari esa yosh kitobxonlarda ijobiy xislatlarning rivojiga, ularning badiiy asarlar mutoalasiga bo‘lgan qiziqishini ta’minlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 137 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Mumtoz adabiyotda “Layli va Majnun” mavzusi va uning Alisher Navoiy she'riyatiga sintezi”** deb nomlangan dastlabki bobi uch fasldan iborat. Bobning **“Layli va Majnun” qissasi va mumtoz she'riyat timsollar olami”** nomli birinchi faslida Layli va Majnun obrazlari genezisi, qissaning dostonlar turkumidagi rivoji, Alisher Navoiyning bebaho ijodiy merosida tutgan o'rni va lirikadagi badiiy talqinlari yoritilgan. “Layli va Majnun” dostoni Sharq adabiyotida Nizomiy Ganjaviy tomonidan boshlanadi. Unga javoban Amir Xusrav Dehlaviy “Majnun va Layli” dostonini yozadi. Dehlaviydan keyin forsiy adabiyotda, xususan, Hirot adabiy muhitida Ashraf Marog'aviy, Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy, Shayxim Suhayliy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy, Xoja Imod Loriy va boshqalar ushbu mavzuda asarlar yozgan<sup>10</sup>. Shuni aytish kerakki, “Layli va Majnun” taraqqiyotida qissa qahramonlari lirik mezonlarga ko'ra tezda she'riyatga ko'chadi. Bu afsona qahramonlari xamsachilikka qadar mumtoz she'riyatda ko'plab shoirlar uchun o'ziga xos ilhombaxsh mavzu bo'lganligi ko'rinadi. Jumladan, Rudakiy, Nizomiy, Xusrav, Hofiz, Lutfiy, Atoiy, Gadoiy ijodida forsiy-turkiy she'riyatga chuqur singib bordi va o'ziga xos an'anaga aylanadi. Hatto Alisher Navoiy ijodkorlarga Layli va Majnun mavzusini talqin etganligiga ko'ra baho berib o'tadi. Masalan, “Majolis un- nafaos” asarida Mavlono Soyiliy, Mavlono Malik, Mavlono Qironiy, Mavlono Nargisiy, Mavlono Fidoiy, Mavlono Darvesh Dehakiy, Mavlono Ahliy kabi o'nga yaqin shoirlar ijodidan Layli va Majnun timsollari bor baytlarni keltiradi<sup>11</sup>, Sulton Husayn Bayqaro-Husayniy she'riyatidagi namunalari e'tibor qaratadi. Bu esa nafaqat dostonlarda, balki she'riyatda ham Layli va Majnun timsollari talqin an'analari mavjud bo'lib kelganligini tasdiqlaydi. Ta'kidlash mumkinki, “Layli va Majnun” mavzusi Alisher

<sup>10</sup> Тоҳиров С. Темурийлар даврида хамсанавислик. (Монография). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2020.- 6 б.

<sup>11</sup> Алишер Навоий. Мажолис ул-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2013.-768 б.

Navoiyning sevimli mavzularidan hisoblanadi. Buyuk mutafakkir ijodida “Layli va Majnun” mavzusiga alohida adabiy-estetik hodisa sifatida qarash lozim. Alisher Navoiy bu mavzuda alohida doston yaratadi, o‘z asarlarida (“Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”) Majnun va Layli to‘g‘risidagi hikoyatlardan unumli foydalanadi. Lirikasida Layli va Majnun timsollari shu tipli obrazlar orasida yetakchi o‘rin tutib, qo‘llanilish jihatdan epik talqinidan ko‘ra lirik tasvirlar miqdori ortib ketadi. Ana shularni hisobga olgan holda, Layli va Majnun timsollari lirik talqini masalasi adabiyotshunoslikda maxsus tadqiqi zarurat ekanligi ko‘rinadi. Ushbu bobning ikkinchi fasli **“Majnun obrazi genezisi va uning Navoiy she‘riyatidagi talqini”**ga bag‘ishlangan. Unda Majnun obrazi shoir g‘azallari va boshqa lirik janrlardagi she‘rlari misolida ilmiy tadqiq etiladi. Manbalarga ko‘ra, Majnun tarixiy shaxs, u Shimoliy Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansub bo‘lgan, ismi manbalarda Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, al-Aqra va ba‘zan al-Buhturiy ibn al-Ja‘d tarzida keltiriladi. Majnun o‘z qabilasidan bo‘lgan Layli ismli qizni sevib qoladi va unga bag‘ishlab she‘rlar to‘qiydi. Uning she‘rlari qabiladoshlari va boshqa qabilalar orasida keng tarqalganligi haqida Ibn Qutaybaning “Kitob ush-she‘r vash-shuaro” asarida aniq ma‘lumotlar keltiriladi. Biroq ayrim tarixchilar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziydir, mavjud she‘rlar o‘z amakisining qizini sevib qolgan ummaviy bir yigitning she‘rlari, u Majnun taxallusini qo‘llagan deb aytadilar. Biroq shuni aytish kerakki, VII asr ikkinchi yarmidan boshlab arab she‘riyatida Majnun taxallusi bilan ishq mavzusida yozilgan g‘amgin she‘rlar paydo bo‘lgan<sup>12</sup>. Layli va Majnun syujeti dostonlar tizimida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlar tomonidan sayqallanib boriladi. Turk olimi A.S.Levendning fikricha, turkiy adabiyotning o‘zida “Layli Majnun” syujetli asarlarning soni o‘ttizga yaqinlashadi<sup>13</sup>. Dalillarga ko‘ra, Majnun obrazining yozma adabiyotidagi dastlabki talqini ozarbayjonlik xamsanavis Nizomiy Ganjaviy nomi bilan bog‘liqdir. U o‘tmishda yaratilgan afsona va rivoyatlarning Majnun haqidagi tarqoq epizodlaridan “Layli va Majnun” dostoni syujetini hosil qiladi. Bunda ijodkor arab manbalari, jumladan, Ibn Qutaybaning “Kitob ush-she‘r vash-shuaro”, Abulfaraj Isfahoniyning “Kitob ul-og‘oni” (Qo‘shiqlar kitobi) va Abu Bakr Volibiyning “Devoni Majnun”idagi afsona va rivoyatlarga tayanadi<sup>14</sup>.

Turkiy adabiyotda Majnun obrazining ko‘lamdor talqini Alisher Navoiy ijodiga to‘g‘ri keladi. Shoir o‘zigacha bo‘lgan Majnun haqidagi rivoyatlar, dostonlar shuningdek, Layli va Majnun timsollarining Sharq she‘riyatidagi talqinlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lgan. Alisher Navoiy she‘riyatida Majnun timsoli rang-barang poetik manzaralarni ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan:

### **1.Hamd g‘azallarda**

a)ilohiy ishq tolibi:

*Sening nash‘ang edi Shirin ila Laylodakim, Farhod*

*O‘lub, Majnung‘a bo‘ldi yuz tuman ranj-u ano paydo.*

<sup>12</sup> Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти. Алишер Навоий даври (ўқув қўлланма), - Т.: «Тамaddon» нашриёти, 2016. - 126 б.

<sup>13</sup> Agah Sirri Levend. Arap, fars ve turk edebiyatlarinda Leyla ve Mecnun hikayesi. - Ankara, 1959. S. 3

<sup>14</sup> Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг Лайли ва Мажнун дostonи. - Т.: Фан, 1970. -26 б.

## 2.Oshiqona g'azallarda:

a) lirik qahramondan ma'rifat o'rganuvchi:

*Ishqdin ko'p ma'rifat xarj ayladi Majnun manga,  
Bo'lmasa majnun, qilurmu xarj, mendin o'rganib.*

b) telba ko'ngil timsoli:

*Choklik ko'ksun aro telba ko'ngul turmas hech,  
Garchi Majnung'a vatan loyiq erur vayrona.*

d) fano maqomidagi oshiq:

*Cherik vuhushu senga, taxt - qulla, ey Majnun,  
Fano mamolikida podsho emishtuksen.*

Dissertatsiyada Majnun timsolining lirik qahramonning oshiqlik darajasiga ko'ra munosabati masalasi alohida tadqiq etildi. Xususan,

a) Majnun – ustoz, yo'l boshlovchi:

*Vasiyat qildi qabri boshida Farhod ila Majnun,  
Junun sahosida ul toshlarni ko'ksun urdum.*

b) Majnun – hamroh, o'rtoq, hamdard:

*Ozimi dashti fano bo'ldum kelur Majnun dog'i  
Gar qadam tez urmon andindurki, hampoyim kelur...  
Asray olmon o'zni, ashkim tutti dasht-u tog'ni,  
Nechakim Farhod-u Majnun dedilar bas yig'lamoq.*

d) Majnun – shogird, havasmand, ergashuvchi:

*Ishq ahli go'ristonida qabrim chu zohir bo'lg'usi,  
Farhod oning toshin yo'nub, Majnun mujovir bo'lg'usi.*

e) Lirik qahramon mavqeyi Majnun yeta olmaydigan darajada yuksak:

*Bir oh ila kul bo'ldum ey charx tilab topib,  
Farhod ila Majnung'a oshiqlik ishin o'rgot.*

Aytish mumkinki, Sharq she'riyatida biror bir shoir Alisher Navoiy darajasida Majnun timsoliga murojaat etmagan. Chunki Alisher Navoiy lirikasida Majnun (Farhod timsoli bilan) lirik qahramon kechinmalariga juda yaqin obraz hisoblanadi. Majnuning Ka'badagi munojoti Alisher Navoiy munojotlariga qiyoslanganda bu yanada ma'lum bo'ladi. Shoir lirikada o'zining eng hayajonli tuyg'ularini, qolaversa, g'oyaviy-badiiy maqsadlarini ifoda etishda ushbu timsoldan unumli foydalanadi. Shoirning "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlarida 140 dan ortiq, "Xazoyin ul-maoniy"da esa 300 ga yaqin o'rinlarda mazkur timsolga murojaat etilgan. Ushbu bobning uchinchi fasli "**Layli timsoli talqini an'analari va Alisher Navoiy lirik merosi**" deb nomlangan. Abulfaraj Isfahoniyning (897-967-yillar) "Kitob ul-og'oni"sida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Layli arab amiri - Sa'd ismli kishining farzandi bo'lgan<sup>15</sup>. Sharq adabiyotida Layli obrazi dastlab rivoyatlarning qahramoni, keyinchalik dostonlarda an'anaviy obraz sifatida gavdalanadi. Uning badiiy adabiyotdagi to'laqonli qiyofasi ilk bora Nizomiy Ganjaviyning "Layli va Majnun" dostonida ko'rinadi. Bu haqda adabiyotshunos T.Ahmedov: "Nizomiy dostonidagi Layli harakat va xarakteri bilan arab rivoyatlaridan tubdan farq qiladi. Agar manbalarda Layli kichik epizodik xarakter

<sup>15</sup> Agah Sirri Levend. Arap, fars ve turk edebiyatlarinda Leyla ve Mecnun hikayesi. - Ankara, 1959. S. 15

tarzida ko‘rinsa, Nizomiy asarida to‘laqonli mukammal obraz darajasiga ko‘tarilgan, u dostonida Majnun bilan teng mavqega ega...Shoir Laylining ichki dunyosini ochish, jamiyatda tutgan o‘rnini ko‘rsatishga katta e’tibor bergan ...Muallif Laylini Majnun bilan xat-yozishmalarini hisobga olgan holda, uni shoira deb ham ataydi.”<sup>16</sup>, - deydi. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida salaflari izidan borib Laylining ideal obrazini yaratadi, komillik sifatlarini Majnun obrazida jamlaydi. Y.Abdulhakimovanning fikricha, mumtoz adabiyotda Majnun tasvirini mukammal ochib berish uchun Layli obrazi tug‘iladi<sup>17</sup>. Aytish mumkinki, Layli Alisher Navoiy she’riyatining asosiy timsollaridan hisoblanib, shoir o‘zining badiiy-falsafiy fikrlarini ifodalashda Layli obraziga murojaat etadi. Masalan, “Badoyi’ ul-bidoya” devoniga kirgan hamd g‘azallarning birida Layli ilohiy tajalliyotga ramz sifatida olinadi.

*Ne ishka bo‘ldi beorom ko‘zgu aksidek Majnun,  
Yuzi ko‘zqusida aksingni gar ko‘rguzmadi Laylo.*

Shoir talqinida Laylo yuzi “mazhar”, uning yuzi oynasida Haq jamoli zuhur etgan, shuning uchun Majnun uni ko‘rganda betoqat bo‘lib oromini yo‘qotgan. Alisher Navoiy lirikasida ishq ilohiy mavzular talqinida ko‘proq Laylo va Majnun timsollariga murojaat etiladi. Chunonchi,

*Navoiy, ahli junun zumrasig‘a kirdi ilohiy,  
Chu aylading ani Majnun, o‘zungni qil anga Laylo.*

Mazkur baytda Majnun – “ahli junun”ga, Laylo – ishq mahzariga nisbatan timsol bo‘lib keladi. Baytning lirik qahramoni junun ahlidan bolib, uning Haqqa otashin ishq Majnun va Laylo majoziy timsollarida yoritiladi.

Oshiqona g‘azallarda Layli go‘zalligi, nazokati va latofati bilan yuksak sharaflanadi. Shoirning lirik qahramoni ba‘zan o‘z mahubasiga Layli deb murojaat qiladi, visol dashtida boshi quyundek ko‘kka yetganidan mamnun bo‘ladi.

*Quyundek vasl dashtidin gar, ey Layli, meni surdung,  
Degach, sargashta Majnunum, boshimni ko‘kka yetkurdung.*

Alisher Navoiy turli munosabatlar bilan o‘zining “Badoyi’ ul-bidoya” (1472-76) va “Navodir un-nihoya” (1476-83) devonlarida Layli timsoliga 43 bor murojaat etgan bo‘lsa, “Xazoyin ul-ma’oniy” kulliyotida bu ko‘rsatkich 80 ga yaqinlashadi (umumiy hajm 76 bayt 152 misra).

Xulosa qilib aytganda, Layli va Majnun obraz-timsollarining badiiy adabiyotdagi talqini uzoq davrlarni o‘z ichiga oladi. Dastlab arab xalqlarining sevgi haqidagi afsona va rivoyatlari qahramoni sanalgan Layli va Majnun vaqt o‘tishi bilan Sharq lirikasining asosiy poetik timsollari sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Mazkur obrazlarning yorqin xarakteri esa dostonlarda ko‘rinadi. Alisher Navoiy she’riyatida ushbu timsollar o‘ziga xos poetik lavhalar ijrosiga xizmat qiladi. Chunonchi, Layli va Majnun timsollari lirik “men” kechinmalarining eng hayajonli, oshiq ko‘ngilning eng dardli ifodalariga talmih-tamsil qilinadi. Shoir lirikada Layliga nisbatan Majnunga ko‘proq murojaat etgan bo‘lib, bu orqali Majnun timsolining poetik ifoda imkoniyatini yanada kengaytiradi.

<sup>16</sup> Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” дostonи. – Т.: Фан, 1970. - 19 б.

<sup>17</sup> Абдулҳакимова Ю. Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий “Лайли ва Мажнун” дostonларининг қиёсий таҳлили. Фил. фан. фал. док.(PhD) дисс.авт. – Toshkent, 2022. – 18 б.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Alisher Navoiy she’riyatida Layli va Majnun timsollarining ifodalanish xususiyatlari**” deb nomlangan. Bobning “*Layli va Majnun timsollari va lirik janrlar ko‘lami*” deb nomlangan birinchi faslida Alisher Navoiy she’riyatida Layli va Majnun timsollarining turli janrlardagi ifodasi ilmiy tadqiq qilinadi. Layli va Majnun timsollari asosan 7, 9, 11 (ba’zan 8) baytli g‘azallarda ko‘zga tashlanadi va asosan ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi, oltinchi, matla’ va maqta’ baytlarida keladi, har bir baytdagi talqin shoirning o‘ziga xos badiiy-estetik kashfiyotini yuzaga chiqaradi. Masalan,

a) g‘azallar matla’sida:

*Majnun boshini sajdadin olmas edi aslo,  
Gar Layli itining julidin topsa musallo*<sup>18</sup>.

b) g‘azallar maqta’sida:

*Qilsangiz tasviri Laylo husnin ul oydek sizing,  
Lek Majnunni Navoiy birla monand aylangiz*<sup>19</sup>.

Layli va Majnun timsollarining maqta’ baytlarda keltirilishi lirik qahramon haqida g‘oyat chuqur fikr-mulohaza qilishga chorlaydi. Quyidagi baytda mantiqan fikr chizuvchi(musavvir)ga qaratilgan, biroq “aylangiz” so‘zi ikkinchi shaxs ko‘plikda ekanligi hisobga olinsa, bunda ko‘pchilik nazarda tutiladi. Shoir g‘azalning yuqori baytlardan kelib chiqib, yor va oshiq obrazlarini kitobxon tasavvuriga keltirishini maqsad qiladi. U Laylo husnini tasavvur etib bo‘lmasligini ta’kidlash bilan (Majnunni devona etgan Layli husni taxayyulga sig‘maydi, uni ta’riflash imkondan tashqari), uni o‘z mahbubasidek qilib chizing, Majnunni esa Navoiyga o‘xshating deydi. Shoir o‘z g‘azallarida Layli va Majnun ishqini lirik qahramon kechinmalariga juda yaqin oladi. Diqqatga molik tomoni mumtoz she’riyatda Layli va Majnun timsollari, asosan, g‘azallarda qo‘llanilgan bo‘lsa, Alisher Navoiy ularni lirikasining boshqa janrlariga ham olib kiradi.

*Ey, husnungga zarroti jahon ichra tajallo,  
mazhar sanga ashyo,  
Sen lutf bila kavnu makon ichida mavlo,  
olam sanga mavlo.  
Har yon kezaram telba sifat toki yoshundung  
ko‘zdin pari yanglig‘,  
Majnundin o‘zin toki nihon qilmadi Laylo,  
ul bo‘lmadi shaydo*<sup>20</sup>. (mustazod)

*Har lahza ko‘ngul g‘amingda mahzun bo‘ladur,  
Mahzunlug‘i lahza-lahza afzun bo‘ladur.  
Savdo anga yuz onchaki, Majnun bo‘ladur,  
Yuz muncha desam ham ne ajab chun bo‘ladur*<sup>21</sup>. (ruboiy)

*Voqif ermas yor, jon bersam buzug‘ koshonada,*

<sup>18</sup> Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik, uchinchi jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU 2013. 32-b.

<sup>19</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ҳингирма томлик, иккинчи том. – Т.: Фан, 1987.-196 б.

<sup>20</sup> Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Birinchi jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012.– 673 b.

<sup>21</sup> Ko‘rsatilgan asar, 730-b.

*Shah ne ogah, xasta Majnun o'lsa bir vayronada*<sup>22</sup>. (fard)

Tadqiqotda, shuningdek, timsollarning muxammas, musaddas, tarji'band, lug'z kabi she'riy janrlardagi qo'llanilishi o'rganildi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli "**Layli va Majnun timsollari va muvoziy tasvir masalasi**" deb nomlangan. Alisher Navoiy she'riyatida Layli va Majnun timsollari o'zaro yoki alohida ifodalanishdan tashqari boshqa shu tipdagi Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro timsollari bilan ham ko'p bor parallel qo'llangan. Chunki bu timsollar mumtoz adabiyotda majoziy ishq ifodalarida hamohanglik kasb etadi, ya'ni Layli va Majnun, Vomiq va Uzrolar ishq motivining turfa qirralarini aks ettirib beradi<sup>23</sup>.

*Layli-yu Shirinvashimning ishq dashtu tog'ida*

*Mencha bir yo'q, garchi bor Majnun ila Farhodi ko'p*<sup>24</sup>.

Alisher Navoiy g'azallarida bir necha mahbuba ismi qo'llanishi, ma'shuqaning har gal har xil tavsiflanishi ayni paytda talqin ishq ilohiy bo'lganiga ham dalolat qiladi. Zero, bu tasavvuf she'riyatida ramz bo'lib, ular orqali ilohiy mushohada va botiniy holatlar, g'ayb olamiga oid hodisalar tavsiflanadi. Adabiyotshunos U.Qobilov ta'kidlaganidek, "Alisher Navoiy she'riyatida obrazlar muvoziy tasvirlanganda ular tarixi va tavsifi bilan bog'liq rangin talqinlar lirik tuyg'ularga tamsil etiladi. Bunda obrazdan ko'ra ularga daxldor lavha va detallar talqiniga e'tibor qaratiladi. Ular goh oshiq, goh ma'shuq obrazlari tabiatida aks etadi. Bunda muvoziy obrazlar ham, timsol va she'r ruhiyatida ham mantiqiy bog'liqlik, badiiy-estetik muvozanat ta'minlanadi"<sup>25</sup>.

Aytish mumkinki, Alisher Navoiygacha Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro timsollarini o'zaro bir baytda muvoziy qo'llanilishi boshqa shoirlar ijodida unchalik ko'zga tashlanmaydi. Alisher Navoiy esa mazkur timsollarni mumtoz she'riyat mezoni – aruzning hazaj va ramal bahrlarining sodda vaznlarida muvoziy qo'llash imkoniyati mavjudligini ko'rsatib bergan. Masalan, quyidagi baytda adabiy timsollar o'zaro ohangdosh, uyg'un tarzda aruzning hazaji musammani solim vazniga qulay tushadi:

*Gadolar zar/q uchun bir tel/ba mahbus ay/lagan yanglig'*

v---          v----          v----          v---  
mafoiylun    mafoiylun    mafoiylun    mafoiylun  
*Meni olib/ yururlar Vo/miq-u Farho/d ila Majnun*

v---          v----          v----          v---  
mafoiylun    mafoiylun    mafoiylun    mafoiylun

Yoki navbatdagi baytda Shirin, Layli, Majnun va Farhod timsollari baytning har ikki misrasida aruzning ramali musammani mahzuf vazniga moslashtirilgan:

*Dilbarim Shi/rin bila Lay/lig'a gar aq/ron esa*

-v--          -v--          -v--          -v-

<sup>22</sup> Ko'rsatilgan asar, 747-b.

<sup>23</sup> Холмуродов Х. Алишер Навоий шеъриятида образ-тиссоллар трансформацияси. Фил. фан. бўйича фал. док (PhD)дисс. – Жиззах, 2022. – 27 б.

<sup>24</sup> Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик, бешинчи том. Бадойеъ ул-васат. – Т.: Фан, 1990.– 52 б.

<sup>25</sup> Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV-XV асрлар). Фил. фан. док. дисс.(DSc) автореферати. – Самарқанд, 2019. – 34 б.

foilotun foilotun foilotun foilun  
*Men dog‘i Maj/nun bila Far/hodg‘a am/solmen.*

-v-- -v-- -v-- -v-

foilotun foilotun foilotun foilun

Alisher Navoiy g‘azaliyotida adabiy timsollarning muvoziy ifodalanishiga doir bu kabi misollarni ko‘plab uchratish mumkin. Har bir bayt shoirning ijod tajribasi va mahoratini o‘zida namoyon etadi.

Alisher Navoiy she‘riyatida, ayniqsa, Farhod va Majnun timsollari muvoziy ifodasi eng ko‘p kuzatiladi. Adabiyotshunos H.Eshonqulovning yozishicha, Navoiy she‘riyatida Farhod va Majnun timsollari ishq yo‘lida oshiqqa maslakdosh va unga ruhiy-ma‘naviy yaqinlik hosil qiluvchi obrazlardir<sup>26</sup>. Shunday ekan, quyidagi baytda lirik qahramonning ishq tufayli xirad (aql) ahli qoshida rasvoya olam bo‘lishini shoir Farhod va Majnunlar holatiga yaqin olib, hatto ular ahvolidan yuqori qo‘yadi:

*Ahvolima Farhod ila Majnung‘a taajjub,  
Ishq etti xirad ahli qoshida meni rasvo<sup>27</sup>.*

Bunda Farhod va Majnun timsollari lirik qahramonga hamroh, ya‘ni ishq ahliga ramz sifatida olingan. Aslida ularchalik hech bir oshiq ishq dardlarini ko‘rmagan. Farhod g‘am tog‘ini qazaverib tog‘- u toshlarni bag‘ir qoni bilan qizartgan bo‘lsa, Majnun aqli hushidan ayrilib, tinim bilmay dasht-u sahroni kezganligi ma‘lum. Bu timsollarning Layli va Shirin timsollari bilan bir baytda muvoziy ifodalanishi 14 bor kuzatiladi, biroq Farhod va Majnun timsollari birgalikda qo‘llanilishi shoir kulliyotining “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida 16, “Navodir ush-shabbob”da 26, “Badoye’ ul-vasat”da 30, “Favoyid ul-kibar”da 27 o‘rinda hammasi bo‘lib 99 marta keltiriladi. Hatto Layli va Majnun timsollari ham o‘zaro bunchalik qo‘llanilmaydi. Alisher Navoiy she‘riyatida adabiy timsollarning bunday ko‘lamli muvoziy ifodasi fors-tojik she‘riyatida ham kamdan kam uchraydi. Dissertatsiyada timsollarning muvoziy qo‘llanilishi alohida jadvalda ko‘rsatib o‘tildi. Bu bobning **“Layli va Majnun timsollari: badiiy mahorat va san‘atkorlik”** deb nomlangan uchinchi faslida Alisher Navoiyning Layli va Majnun timsollarini qo‘llagan baytlarda badiiy san‘atlarni qo‘llash mahorati tahlil etiladi. Mumtoz she‘riyatda ijodkorlar so‘z san‘atining ko‘plab turlaridan mahorat bilan foydalanishgan. Buyuk ijodkorlar qo‘llagan har qanday she‘riy san‘at g‘oyani badiiy ifodalash, lirik-epik timsollarni yorqin gavdalantirish, asarga joziba, jilo, ta‘sirchanlik bag‘ishlash vazifasini bajargan<sup>28</sup>. Shu ma‘noda Alisher Navoiy Layli va Majnun timsollari talqinida mumtoz she‘riyatning bir qancha badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi. Shoir Sharqning bu ko‘hna ishq qissasi qahramonlarini talmeh qilar ekan (she‘rda mashhur qissa, bayt yoxud mashhur maqolga ishora qilish usuli<sup>29</sup>), buning natijasida har bir baytda badiiy, estetik va emotsionallikka erishadi. Masalan, quyidagi baytda shoir Layli va Majnun obrazlarining portreti, xarakter qirralarini o‘ziga xos tarzda ifodalab beradi.

<sup>26</sup>Эшонкулов Х. Алишер Навоий ғазалиётда ишқ поэтикаси қиёсий-типологияк таҳлили. фил. фан. док. дис. (DSc) авт. - Самарқанд, 2020. - 77 б.

<sup>27</sup> Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Birinchi jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 56 b.

<sup>28</sup> Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малохати. – Т.: Шарқ, 1998. - 5 б.

<sup>29</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. - 397 б.

*Sarvdek uksuni axzar birla Layli qaddidur,  
Tokdek yuz xam bila Majnuni uryon qomati.* (tashbih, tazod)

Bu o'rinda Layli qaddi sarvga (an'anaviy tashbeh), Majnun qomati tok (shoirga xos tashbeh) daraxtiga o'xshatilgan. Sarvning osmon uzra tik o'sishi, tokning yer yuzasida egri-bugri bo'lib yotishi Layli va Majnunning tashqi va ichki holatiga mos o'xshatish bo'ladi. Bu esa o'quvchida aniq tasavvur uyg'otadi. Navbatdagi baytda tashbih vositasida shoir Layli va Majnun obrazlari mohiyatiga e'tiborimizni tortadi:

*Shox Majnundurki, uryon bo'lubon aylar fig'on,  
Barg Laylidurki, nilu igna birla qozdi xol.* (talmeh, tashbih)

Baytdan anglanishicha, Layli va Majnun shunchalar bir-biriga yaqinki, ularni bir daraxt tanasidek tasavvur qilish mumkin. Shox Majnun bo'lsa, barg – Layli. Bunda shoirning daraxt shoxining tebranishi, barglarning yerga to'kilish manzaralariga ham yuqori badiiy tus bergani namoyon bo'ladi. Quyidagi baytda shoir bir yo'la tashbih, kitobat va mubolag'a san'atini qo'llaydi:

*Dema roviy: "Erur Farhod-u Majnun qissasi muhlik"  
Ani alqissa bir dol-u alif bil dostonimdin.*

Baytning ikkinchi misrasida shoir alif va dol harflaridan kitobat san'atini yuzaga chiqaradi. Alif va dol harflari aksariyat shoirlar ijodida oshiq va ma'shuqa qaddiga o'xshatilsa, Alisher Navoiy bu harflardan ma'noni kuchaytirish maqsadida foydalangan.

*Layli qabilasi o'ti qaydin ko'runsa shom,  
Majnunni kuydurur, bu ne o'tluq qabiladur.* (talmeh, tardu aks)

Baytda qabila o'ti, o'tluq qabila tardu aks san'ati bo'lib, baytning birinchi misrasida Layli qabilasining tundagi holati, bu qabilani yoritgan o't (olov)ga asosiy fikr qaratilgan bo'lsa, ikkinchi misrada qabilaga diqqat qaratilgan. Bundan "ishq insonni ma'rifatga olib boradigan qudrat, insonni moddiy asosdan poklovchi, xoli etuvchi muqaddas olov"<sup>30</sup> ekanligi anglashiladi. Baytda shoir qabila, o't orqali Majnundagi Layliga bo'lgan ishq olovining alangasini tasvirlaydi.

*To oshiq-u shaydomen qatlim qilur ul ko'zlar,  
Majnung'a kiyiklarni ishq ulfati rom etmish.* (talmih, tanosub)

She'r baytlarida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati – tanosubni<sup>31</sup> yuzaga keltiradi. Baytning ikkinchi misrasida Majnun, kiyik, ishq ulfati kabi so'zlar tanosubdir.

*Zindadil Majnunning o'lmish ko'ngli chun Laylog'a hay,  
Bas ne osig'oni haydin qovlamog'liq, ey arab.* (talmih, tajnis)

Baytning har ikki misrasida kelgan arabcha "hay" so'zi tajnis bo'lib, kitobxon zehni sinaydi. Birinchi misrada "hay" - "tirik", "jonli", ikkinchi misrada "qabila" nomi ma'nosida qo'llaniladi.

Shunday qilib, she'riyatda Alisher Navoiy Layli va Majnun timsollari vositasida shu turkumdagi dostonlarning mazmuniga, qissaning turli epizodlariga takror-takror murojaat etadi. Shoir "ishqi majoziy", "ishqi haqiqiy" kechinmalarini

<sup>30</sup> Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1996.- 43 б.

<sup>31</sup> Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Т.: Шарқ, 1998. - 80 б.

